

**O’RTA OSIYO DAVLATLARINING XVIII-XIX ASR BIRINCHI
YARMIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI VA KARTOGRAFIK
TADQIQOTLARI**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Abdullayev Ramazon

Email: ramazonabdullahayev872@gmail.com +998888031118

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Norqulov O’lmasbek

Email: norqulovolmas559@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Yo’ldoshev Sunnat

Email: yoldoshevsunnat806@gmail.com

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute talabasi

Xo’shboqov Farrux

Email: farruxxushboqov46@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVIII-XIX asr birinchi yarmida O’rta Osiyo davlatlarining tarixiy geografiyasi va O’rta Osiyolik olimlarning kartografik ilmiy tadqiqotlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’zlar: “Bayt ul hikma”, Najib Bakon, “Devoni lug’ati turk” “Jahonna” , Pishpak , Qo’ng’irotlar, “Surat ul arz”, Konibodom, Isfara, Klavdiy Ptolimey, Karki,

Qo’qon xonligi: Qo’qon xonligi o’zbek xonliklari ichida eng yirigi va eng Yoshi hisoblanadi (1709-1876) yillarda mavjud bo’lgan va 167 yil yashagan xolos. Qo’qon xonligiga o’zbeklarning ming urug’idan chiqqan Shohruxbiy 1710-yili asos solgan bo’lib, xonlik tarkibiga dastlab Qo’qon, Marg’ilon, Namangan, Konibodom, Isfara va ularning atrofidagi qishloqlar kirgan. Abdurahimbiy davrida Buxoro Xonligiga xarbiy yurish qilinib Samarcand shaxri egallanadi(1732). Abdulkarimbiy davrida (1746-yil) qalmoqlar Farg’ona vodiysiga hujum qilib, O’sh, Andijon, Marg’ilon shaharlarini egallab, Qo’qonni qamal qiladilar. Norbo’tabiy davrida (1763 -1800) Chust, Namangan, Xo’jand bekliklari bo’ysundirildi. Olimxon davrida (1800 -1810) Toshkent, Chimkent, Sayram bekliklari bosib olindi. Muhammad Alixon (1822 -1842) 1826-yili xitoylarga qarshi qo’zg’olon ko’targan Sharqiy Turkiston aholisiga yordam berib, Oqsuv, Koshg’ar, Yorkent va Xo’tan viloyatlarini qo’lga kiritdi. 1842-yili Qo’qonga bostirib kelgan Buxoro amiri Nasrullo Muhammad Alixon va uning qarindoshlarini qatl ettirdi. Amir farmoni bilan Q’qon xonligi Buxoro noibi tomonidan boshqarilgan. Ammo amir noibi Qo’qon xonligida joriy etilgan soliqlardan tashqari

yana qo'shimcha soliqlar yig'ishni yuklaydi. Natijada Qo'qonliklar 1842-yil yozda qo'zg'olon ko'taradilar va Buxoro amiri humronligiga yakun sanaladi. Shundan keyin Qo'qon xonligida taxt uchun kurashlar boshlandi. 1845 yili taxtga o'tirgan Xudoyorxon ruslar bostirib kelgandan keyin, ular bilan bitim tuzib, Rossiya vassaliga aylandi. Bunga qarshi Farg'ona vodiysi aholisi qo'zg'olon ko'tardi. 1876-yili Rossiya imperiyasi harbiylari qo'zg'oltonni bostirdilar va bahonada Qo'qon xonligi tugatilib,(1876-yil 19-fevral) Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga qo'shib yuborildi.

Buxoro amirligi: (1756-1920) yillarda hukmronlik qilgan sulola. Ashtarxoniylarning inqirozi natijasida Buxoroda hokimiyatni o'z qo'llariga olgan bu sulolaning asoschisi o'zbeklarning mang'it urug'I vakili Muhammad Rahimbiydir (175-1758). Buxoro taxtiga Muhammad Rahim otaliq o'tirgandan keyin ham (1753) feodal tarqoqlik tugamadi. Natijada Xiva xoni o'zini mustaqil deb e'lon qildi. XVIII asr boshlarida o'zbeklarning ming urug' boshliqlari Qo'qon xontigini tashkil etdilar (1709). Shahrisabz, Hisor, Badaxshon hokimlari Buxoro amiriga bo'ysunmay qo'ydilar. Faqat amir Shohmurod davrida (1785 -1800) hokimiyat bir muncha mustahkamlandi. Amir Nasrullo davrida (1826 -1860) amirlik hududiga Amudaryo bo'yłari, janubiy-sharqida Surxondaryogacha bo'lган yerlar, Marv va Balx kirar edi. 1842-yili Qo'qon xonligi ham qisqa muddatda zabit etildi.

Xiva xonligi: Xiva xonligi yoki (Xorazm xonligi) 1512-yili Xiva xonligiga o'zbeklar xoni Elbarsxon tomonidan asos solingan edi. Xonlikning poytaxti dastlab Vazir, keyinchalik Urganch va Xiva bo'lgan. Xonlik tarkibiga Xorazmdan tashqari Mang'ishloq, Balxan tog'lari, O'rta Xuroson hududlari kirgan. Elbarsxon davrida xorazmliklar Turkmanistonning janubiy qismi, Eron shimolidagi Saraxs, Orol va Mang'ishloq hududlari egallanadi. Elbarsxon vafotidan keyin o'zluksiz ro'y bergan nizolar natijasida xonlar tez-tez almashib turadi. Buxoro amirligi tomonidan bir necha bor bosib olingan Xiva xonligi XVIII asr o'rtalarida yana mustaqillikni qo'lga kiritdi. 1763-yilgi taxt uchun davom etgan kurashlardan so'ng o'zbek urug'laridan bo'lgan qo'ng'iroq inoqlari taxtni egalladilar. Muhammad Rahimxon I davrida (1806 -1825) Xiva xonligi to'la birlashtirildi, qo'shni mayda bekliklar, Orol bo'yi qabilalari qo'shib olindi.

Qo'qon xonligi hududi: XIX asming birinchi yarmida Qo'qon xonligi hududiy jihatdan O'rta Osiyodagi yirik davlat edi. Xonlik sharqda Sharqiy Turkiston, g'arbda Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh bo'lgan. Qo'qon xonligi bilan Rossiya o'rtasida Mirzacho'l va Muyunqul cho'llari yastanib yotgan. Xonlikning janubiy chegaralari Qorategin, Ko'lob, Darvoz, Sho'g'non singari tog'i o'lkalarni o'z ichiga olib, bu hududlar uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez to'qnashuvlar bo'ib turgan. Qo'qon, sersuv daryolar, so'lim vodiylar, serhosil yerkirga boy edi. Xonlikning markaziy shaharlari Qo'qon, Marg'ilon, O'zgan, Andijon, Namangan Farg'ona

vodiysida joylashgan edi. Toshkent, Chimkent, Turkiston, Avliyoota, Pishpak, Suzak, Oqmachit kabi yirik shaharlar ham Qo'qon xonligi tasarrufida edi. Qo'qon xonligi 15 beklik, ya'ni harbiy okrugga bo'lingan bo'lib, ularning yarmidan ko'piga xonning o'g'illari yoki yaqin qarindoshlari hokimlik qilganlar. Hokimlar o'z hududidagi harbiy kuchlar qo'mondoni hamda fuqaro boshqaruvingin boshlig'i edi. Ular o'z tasarrufidagi qo'shinni o'zлari moddiy jihatdan ta'minlaganlar. Hokimlar harbiy yurishlar oldidan xonning birinchi da'vati bilan o'z qo'shnilar bilan belgilangan joyga etib kelishlari shart edi. Qo'qon xoni zaruriyat tug'ilganda oziq-ovqat ortilgan 12 ming aravaga ega bo'lган 60 mingtacha sipohni yig'a olardi.

Buxoro amirligi hududi: XIXasrga kelib Buxoro amirligining hududi qariyb 200 ming kv. km.ni tashkil etdi. Uning chegaraiari janubda Amudaryoning soғ qirg'og'idan boshlanib, Sirdaryogacha cho'zilib, qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Amirlik sharqda Pomir tog'laridan, g'arbda Xiva xonligi chegaralarigacha bo'lган hududni egallab turardi. Buxoro va Samarqand kabi yirik shaharlar joylashgan Zarafshon vodiysi amirlikning markaziy qismi hisoblanardi. Qashqadaryo va Surxondaryo voхalari. hozirgi Tojikiston hududidagi Vaxsh, Kofirnihon, Panj daryoiari vodiysida joylashgan shahar va qishloqlar, shuningdek, Turkmaniston hududiga kirgan Murg'ob daryosi voхalaridagi yerlar ham Buxoro amirligiga qarar edi Buxoro amirligining poytaxti Sharqda eng mashhur shahar sifatida e'tirof etilgan Buxoroi sharif edi. Yirik shaharlardan Samarqand, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, G'uzor, Termiz, Sherobod, Hisor, Dushanbe, Kitob va boshqalar amirlik tasarrufida edi. Marv va Chorjuy shaharlari uchun Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasida, Jizzax, O'rategpa va Xo'jand shaharlari uchun Buxoro amirligi bilan Qo'qon xonligi o'rtasida tez-tez urushlar bo'lar, bu shaharlar qo'ldan-qo'lga o'tib turardi. Buxoro amirligi 27 beklik: Karmana, Xatirchi, Ziyovuddin, Nurota, Qarshi, Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog; G'uzor, Boysun, Sherobod, Denov, Karki, Chorjo'y, Hisor, Kitob, Qorategin, Darvoz, Baljuvon, Sho'g'non-Ro'shon, Qo'rg'ontepа, Qabodiyon, Kalif, Qoboqli va Xorazm bekliklaridan iborat edi. Bekliklar mahalliy qabila boshliqlari, katta mulk egalari tomonidan boshqariigan. Har bir beklikni amir tomonidan tayinlab qo'yiladigan hokimlar beklar idora qilgan. Hokim huzurida yuzlab mahalliy ma'murlar xizmat qilgan. Manbalar, amiriikda mahalliy ma'muriar shtati 30 ming kishini tashkii etganligidan guvohiik beradi. Hokim va uning xizmatkorlariga maosh davlat xazinasidan berilmas edi, ular mahalliy aholidan olinadigan turli-tuman soliq va to'lovlar hisobiga tirikchilik qilishganlar.

Xiva xonligi hududi: Xiva xonligi janubda Eron, sharqda Buxoro amirligi, g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda qozoq juzlari bilan chegaradosh edi. Suvsiz va poyonsiz Qoraqum, Qizilqum sahrolari Xiva xonligini geografik jihatdan boshqa mamlakatlardan ajratib qo'ygan edi. Amudaryo sohillarida joylashgan Xiva,

Urganch, Kat, Ko‘qna Urganch, Xazorasp, Qo‘ng‘irot, Xo‘jayli, Kurdar (hozirgi Chimboy) shaharlari xonlikning yirik shaharlari hisoblanar edi.

X o r a z m i y . O’rta asrlarda zaminimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma VIII - IX asrlarda yashab ijod etgan Muhammad Muso al-Xorazmiyning kartografik tadqiqotlari qimmatlidir. Al-Xoraz-miy xalifa Ma’mun tashkil qilgan “Bayt-ul-hikma” (“Donishmandlar uyi”) uda ham faoliyat ko‘rsatgan. Xalifa Ma’mun o’sha davrda yer yuzining bat afsil kartalarini tuzish haqida topshiriq bergen. Uning kartalar yig‘indisi “Ma’mun dunyo kartasi” nomi bilan ham yuritilgan. Tadqiqotchilarining fikriga ko‘ra uning tuzish ishlari 840-yillarda tugallangan. Klavdiy Ptolemyning “Geografiya” kitobini tanqidiy tahlil qilgan “Surar ul- arz” (yerning tasviri haqida kitob) 837-847- yillar oralig‘ida yozilgan. “Surat al-arz (arab tilida) 1926-yilda avstriyalik geograf Gans» Mijik tomonidan nashr qilingan va shu asosda o‘zbek tiliga o‘girilib chop etilgan.

Xorazmiyning kitobi bilan birga uning to‘rtta kartasi ham bizlarga cha yetib kelgan. Ular orasida Azov dengizi havzasini hududlari aks ettirilgan karta qimmatlidir. Ushbu karta shimolga tomon yo‘nalishda berilgan. kri bolib, Xorazmiy gacha va undan keyingi geograftaming kartalarida ushbu dengiz janubga tomon yo‘nalishda chizilgan. Xorazmiy Nil daryosi kartasida ushbu daryo oqimini yaxshi bilishini ko‘rsata olgan. Kartada iqlim chegaralari ham aks ettirilgan. Xorazmiyning uchinchi kartasi - “qimmatli yoqutlar oroli” deb atalib, bunda hamma tomoni toglar bilan qurshalgan bir orol tasvirlanadi. Nihoyat to‘rtinchchi kartada dengiz qirg‘oqlarining turli shakllari berilgan. Xorazmiyning “Surat al-arz” asari g‘arb va Sharq kartograflari uchun keyingi asrlarda ham qollanma bolib xizmat qildi. Undagi O’rta Osiyoga oid maiumotlar haqiqatga yaqinligi bilan ajralib turaili.

Beruniy: Mashhur qomusiy olim Beruniy kartografiya faniga ham o’lkan hissa qo’shgan bolib, uning 10 varaqdan iborat ” Tastih as-suvar va tabtih al-quvar” (qisqacha “Kartografiya”) asari xorazmshoh Abul Abbos Ma’munga bag’ishlangan. Risolada osmon globusini yasash to‘g‘risida gapirilgan. Shuningdek, geografik karta haqida bunday deyilgan: “Yer kurrasini sathga o‘tkazishda esa shahar va qishloqlaming uzunlik va kengliklarini, dengizlar, buloqlar, daryolar, buloqlar, qumliklar, toglar, konlar, tepaliklar, qiyalik va soyliklami bayon etadigan “Jo‘qrofiya” kitobiga ehtiyoj tushadi va bu kitobdagiga qarab ularning (belgilari) ishlanadi”. Beruniyning bizgacha etib kelgan yana bir geografik-kartografil “Qonuni Mas’udiy” (“Al-Qonun al-Mas’udiy fil hay’a van nujum” “Astronomiya fanida Mas’ud ismiga yozilgan qonun”) nomli yirik bo‘lib, uni muallif umrining oxirgi yillarida yozgan. Tadqiqotchilarining fikricha asarining qo‘lyozma nusxalari 10 tacha bo’lsa kerak. Asar jami 12 maqoladan iborat bolib, har bir maqola bir necha bobga bolingan. 5-maqolaning 9-10 boblari geografiya uchun juda muhimdir. Bu boblarda dengiz va quruqliklar chegaralanib, etti iqlim taqsimoti hamda dunyodagi 603 joyning geografik koordinatalari berilgan

Shularga asoslanib, dunyoning geografik kartasi tuzilsa, Beruniyning yer yuzini qanday tasavvur etganligi ayon bolar edi, biroq uzunlik belgilari va boshlang'ich meridian malum bolmaganligidan uchun karta tuzish bir munkha mushkuldir. 0 'ninchi bob "Shaharlaming uzunlik va kengliklarini jadvallarda ko'rsatish haqida" deb nomlanib, Beruniy unda shaharlaming bir-biriga nisbatan vaziyatlariga va oralaridagi masofalar taqozasiga qarab tuzatishga urinadi. Afsuski, jadvalni tuzishda Beruniy ko'p mehnat qilgan bo'lsada, beruniyshunos olimlaming fikricha, qolyozmani ko'chirgan xattotlar raqamlar va nomlarda ba'zi xatoga yo'l qo'yganlar, buning ustiga "qonuni Mas'udiy"ni ruscha va o'zbekcha tarjima qilganda ham qoiyozmalarda yo'l qo'ygan xatolarga e'tibor berilmagan. Natijada jadval sahifalarida talay xatolar o'tib ketgan.

Mahmud Qoshg'ariy: 0'rta Osiyoning eng sharqida – Issiqko'l va Qoshg'arda yashagan, umrining ko'p yillarida "Rumdan ('CHingacha" - O'rta yer dengizi bo'yalaridan Xitoygacha bolgan Hmmlakatlarni kezgan, qabilalar va ulaming tilini o'rgangan olim Mahmud Qoshg'ariy bolib, u "Devonu lug'otit turk" asariga doiraviy dunyo kartasini ilova qilgan. Ushbu kartani chet el olimlaridan K.Miller va A.Germari, sho'rolar davrida L. Krachkovskiy, L. Umnyakov, S.Umurzakov va boshqalar o'rganganlar. Hamidulla Hasanov tadqiqotlari "Devonu lug'otit turk"ga ilova qilingan dunyo kartasining muallifi ham Qoshg'ariyning o'zi ekanligini isbot etdi. Qoshg'ariy kartasi doira shaklida bo'lib, hozirgi yarimsharga to'g'ri keladi. Kartaning arabcha bosma nusxasining diametri 24 s o'zbekcha nusxasini 18 sm.

Najib Bakron: Xurosonlik olim Muhammad ibn Najib Bakron o'z davrining o'qimishli kishisi bo'lib, geografiya, astrologi va kartalar tuzish san'atini puxta egallagan, tarix va tibbiyotdan habardor olim sanalgan. 1209-yilda dunyo kartasini tuzib, unga "Jahonnoma" asarini ilova qilgan. "Jahonnoma"ni va kartani tuzishda Najib Bakron, asosan yozma manbalardan, chunonchi: Xurdodbek, Ishtahriy, Nasriddin Tusiy kitoblaridan, Abu Rayhon Beruniy, N. Xisravning asarlaridan foydalangan. Afsuski, muallifning noyob kartasi yo'qolib ketgan. hozir uni "Jahonnoma" nomli sharhi izohigina mavjuddir. "Jahonnoma" matnida 600 tagacha joyning nomi tilga olingan lekin kartaning o'zida bundan ham ko'proq bo'lsa kerak.

Xulosa

XIX asrning 20-yillariga kelib Britaniya imperiyasida ishlab chiqarilgan mollar Rossiyadan keltiriladigan mahsulotlarga raqobat tug'dira boshladi. Buyuk Britaniya Afg'oniston, Eron va O'rta Osiyo hududlariga bo'lgan da'volarini ochiqchasiga bayon eta boshlagan edi. Rossiya Osiyo bozorlarida o'z mavqeini mustahkamlash maqsadida rus mahsulotlarini mintaqaga keltirilishida imtiyozli bojxona sharoitlarini yaratib berdi. Nikolay I davriga kelib chor Rossiyasining mintaqadagi diplomatik va harbiy ta'siri kuchayib bordi. **O'rta Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi** XIX asrning ikkinchi yarmida sodir bo'la boshladi. Ammo ungacha bir qancha harakat amalga oshirilgan edi. XVIII asrda

Rossiya imperiyasi Qozoq juzlari ustidan nazoratni kuchaytirgandi. Rossianing O'rta Osiyon bosib olishi bir necha o'n yillar davomida amalga oshirildi. 1834-yil o'zbek xonliklariga olib boruvchi yo'l chorrahalarida Novo-Aleksandrovska qo'rg'oni (Mang'ishloq shahri) barpo etildi. 1839-yilda Rossiya Orol dengizi janubidagi Xiva xonligini zabit eta olmadi. 1839-yil oxiri va 1840-yil boshlarida Orenburg general-gubernatori graf Perovskiy Xiva xonligiga qarshi qishki harbiy yurish uyushtirdi va u muvaffaqiyatsiz bo'ldi. 1847-yilda general Oruchev Orol dengizining shimoli-sharqiy qirg'og'ini zabit etdi va Raim (Kazalinsk shahri) qo'rg'oniga asos soldi. 1847-1853-yillarda ruslar Orol dengizining shimoliy tomonidan sharqiy Sirdaryo bo'y lab bir qator qal'alar qurishdi. 1847-1864-yillarda ular sharqiy Qozoq cho'llarini kesib o'tib, Qo'qon xonligining shimoliy chegarasi bo'y lab qal'alar qurdilar. Nikolay va Konstantin paraxodlardan iborat Orol flotiliyasini tashkil etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aminov O. XVI - XX asrlarda O'rta Osiyonning Rossiya bilan tarixiy va iqtisodiy aloqlari. -T., 1958.
2. Ziyayev H. Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash (XVIII-XX asr boshlari). - T.: Sharq, 1998.
3. Yo'doshyev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. — T., 1959.
4. Panjiyev, J. T. O. G. L., Bozorov, Q. D. O. G. L., & Xolboyev, J. L. O. G. L. (2022). Artificial irrigation system during the reign of Amir Temur and the Temurids. Science and Education, 3(1), 154-156.
5. Nazirov, B. (2020). Ўзбекистонда жисмоний маданият ва спортнинг ривожланиш тарихи. СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР.
6. Nazirov, B. (2020). "IMOMUL HUDA-HIDOVATGA BOSHLOVCHI IMOM. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS.
7. Yakubova, D. (2022). SURXONDARYO TARIXI.
8. Yakubova, D. (2021). Ўзбекистонда пахта яккаҳоқимлиги ва унинг натижалари. Tafakkur Avlod.